

**BUXORO XALQARO UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.P.43.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ABDULLAYEVA ZUHRO ISMOILOVNA

**IQTIDORNING SHAXS MULOQOT USLUBIGA
TA'SIRINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK
XUSUSIYATLARI**

19.00.05 –Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya.

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
психологическим наукам**

**Contents of the abstract of dissertation of the doctor of philosophy (PhD) on
psychological sciences**

Abdullayeva Zuhro Ismoilovna

Iqtidorning shaxs muloqot uslubiga ta'sirining ijtimoiy psixologik xususiyatlari5

Абдуллаева Зухро Исмоиловна

Социально-психологические особенности влияния одаренности на стиль
общения личности25

Abdullayeva Zuhro Ismoilovna

Socio-psychological features of the influence of inclination on an individual's
communication style49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works53

**BUXORO XALQARO UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.P.43.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ABDULLAYEVA ZUHRO ISMOILOVNA

**IQTIDORNING SHAXS MULOQOT USLUBIGA
TA'SIRINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK
XUSUSIYATLARI**

19.00.05 –Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya.

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/P680 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.bxu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyo.net.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sharafutdinova Xadichaxon Gulyamutdinovna
psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Ro'ziqulov Faxriddin Rasulovich
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Shamsiyev O'ktam Baxriddinovich
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Etakchi tashkilot:

Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro xalqaro universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.P.43.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «19» 08 soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 200118, Buxoro shahri, G'ijduvon ko'chasi, 250-uy. Tel.: (+9955) 309-99-99; email: bxu.@bxu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro xalqaro universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (052 raqam bilan ro'yxatga olingan.) (Manzil: 200126, Buxoro viloyati, Buxoro shahri, G'ijduvon ko'chasi, 250-uy. Tel.: (+9955) 309-99-99).

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «7» «08» kuni tarqatildi.

(2026 yil «19» «08» dagi 25 raqamli reyestr bayonnomasi)


Sh. R. Baratov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
psixologiya fanlari doktori, professor


Sh. Sh. Ostanov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent


D. A. Sobirova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, psixologiya fanlari doktori
(DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

issertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda iqtidorlilar salohiyatini yanada yuksaltirish va namoyon etishga alohida shart-sharoitlar yaratish zarurligi azaldan tan olinib, dunyoning ko‘plab davlatlari ta’lim siyosatida o‘z ifodasini topgan. Iqtidorlilik, IQ darajasi 130-135 dan yuqoriligi bilan belgilanib, aholining taxminan 2% ni, tug‘ilish darajasi taxminan 100 dan 2 tani tashkil qilib, iqtidor akademik, ijtimoiy va badiiy sohalarni qamrab oladi¹. Amerika Qo‘shma Shtatlarida o‘tkazilgan tadqiqotlar mamlakatning siyosiy, moliyaviy va boshqaruv elitasi vakillarining aksariyati intellektual va akademik iqtidorli hisoblanib, mamlakatning eng yaxshi ta’lim muassasalarini tamomlagan. Fan, ishlab chiqarish va boshqaruvda muhim o‘rinlarni egallaydigan ijodiy elitani tarbiyalash Xitoyda ta’lim islohotlarining ustuvor vazifalaridan biriga aylanib ulgurgan. Bugungi kunda jamiyatning cheksiz fikrlashni biladigan, mamlakat ijtimoiy-madaniy hayotiga, ishlab chiqarish sohasiga yangi ijobiy tendentsiyalarni olib kela oladigan odamlarga bo‘lgan ehtiyoji sezilarli darajada oshib bormoqda. XXI asrda fan, texnika va texnologiyalarning taraqqiyoti yuksak darajaga ko‘tarilayotgan bir davrda insonning mazkur jarayonlar bilan uyg‘un yashashi talabining oshishi tufayli iqtidorni tadqiq etish alohida dolzarblilik kasb etmoqda.

Jahon oliy ta’lim tashkilotlari va ilmiy-tadqiqot markazlari tadqiqotlari iqtidorlilik shaxs qobiliyatlari spektrining kengligi, qulay ijtimoiy sharoitlarda yuksaladigan matematika, texnika, tillar, musiqa kabi bir nechta sohalarda nazariy va amaliy muammolarni hal qilishda yuqori samaradorlik bilan namoyon bo‘lishini tadqiq etib kelinmoqda. Amerika Qo‘shma Shtatlari tadqiqotlarining bu yo‘nalishdagi ulushi yuqori ekanligi kuzatiladi. Hozirgi vaqtda AQShda rahbarlik va yetakchilik xususiyatlarni o‘rganish maqsadida 32 ta tadqiqot markazi yaratilgan bo‘lib, amerikalik tadqiqotchilarning jahon fani uchun bajargan muhim ilmiy ishlari soni 7000 tani tashkil etadi². Shu nuqtai nazardan bugungi kunda shaxs turmushining murakkablashishi, hayot ritmining tezlashishi, iqtidor va uning shakllanish qonuniyatlarini o‘rganish, iqtidorlilarning qarorlar qabul qilish strategiyalari, muloqot uslubining kam iqtidorlilardan farqi, iqtidorni rivojlantirishda ijtimoiy muhit ta’sirini aniqlash, ularni iqtidori past darajadagi shaxsga transformatsiya qilish yo‘llarini kashf etish dolzarbligi yanada oshmoqda.

O‘zbekistonda iqtidorli bolalarni aniqlash, ularning iqtidori yo‘nalishlarini belgilash, iqtidorini ro‘yobga chiqarish davlat miqyosidagi muammo sifatida qaralib, jamiyat taraqqiyotida shaxs iqtidorining o‘rni beqiyosligi, jumladan, yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirish, iqtidorli bolalarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, ularning huquqiy ong va madaniyati darajasini yuksaltirish ta’limi sohasidagi davlat siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan hisoblanadi³. Xususan, mamlakatimizning kelajakdagi jadal taraqqiyoti yosh iste’dodlarni aniqlash,

¹ <https://science.mail.ru/articles/4017-samye-umnye-lyudi/>

² Бендас Т.В. Гендерная психология лидерства: монография-Оренбург:ИПК ОГУ, 2000. С.50-53

³ <https://lex.uz/ru/docs/7145231>

iqtidorli bolalarni tanlab olish hamda ularga ta'lim berish tizimini tashkil etish, intellektual imkoniyatlarini namoyon etishga yordam beruvchi ko'p tarmoqli ta'lim muhitini yaratish bo'yicha ishlar sifatini oshirish muhim va dolzarbdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida» 2019-yil 3-maydagi PQ-4306-sonli, «Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida» 2019-yil 20-fevraldagi PQ-4199-sonli, «Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi 2022-2026-yillarga mo'ljallangan 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Prezident, ijod, ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarga o'quvchilarni saralab olish hamda qabul qilish tartibiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida»gi 2023- yil 27-may 214-son qarori, «Ilmiy va innovatsion faoliyat bilan shug'ullanib kelayotgan iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2021-yil 19-apreldagi, «Yangi O'zbekiston» universitetining iqtidorli talabalariga davlat grantini berish tartibi hamda O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari va ularning filiallari hamda nodavlat oliy ta'lim tashkilotlariga to'lov-kontrakt asosida o'qishga kirgan Prezident maktablari bitiruvchilariga subsidiya berish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida»gi 2022-yil 2-iyun 300-son qarori va boshqalar mazkur dissertatsiya tadqiqoti uchun me'yoriy-huquqiy hujjatlar sifatida muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Iqtidorning shaxs muloqot uslubiga ta'sirining ijtimoiy psixologik xususiyatlarini o'rganish muhim ijtimoiy-psixologik muammo sifatida o'zbek psixologlaridan psixologlar M.G.Davletshin, N.Z.Jumayev, R.I.Sunnatova, V.M.Karimova, E.Z.Usmonova, J.X.Mavlonov, Z.T.Nishonova, F.M.Orifova, Z.M.Sirojiddinova, U.A.Turdiqulov, N.Xujayeva, X.G.Sharafutdinova, E.G'.G'oziyev, B.R.Qodirov, M.A.Ibrogimov, M.F.Dadaxodjayeva kabilar tadqiqot ishlarida iqtidorlilar psixologiyasiga oid mulohazalar aqliy qobiliyat, intellekt va uning rivojlanishi xususiyatlari bilan bog'lab o'rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan K.A.Armyaninova, V.N.Drujinin, O.V.Zaslavskaya, V.M.Ekzemplyarskiy, G.I.Chelpanov, T.V.Kostareva, A.S.Kulyapina, N.S.Leytes, S.E.Motornaya, L.A.Moyseenko, S.L.Rubinshteyn O.M.Shters, O.E.Salnikova, N.I.Chuprikova, B.M.Teplov, M.Xolodnaya, V.S.Yurkevich va boshqalar tadqiqotlar olib borganlar.

Xorij psixologlaridan A.Bine, J.Piaje, Ch.Spirmen, Tyorstoun, Dj.Gilford, G.Ayzenk, R.B.Kettell, R.Sternberg, K.Xeller, J.Uitmor kabilar iqtidorni ko'proq

aqliy qobiliyat bilan bog'lab o'rganib, iqtidorni aniqlovchi psixologik intellekt testlarini yaratganlar.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Termiz davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining «Zamonaviy psixologiya sohalarida shaxs xulq-atvori, ijtimoiy munosabatlarning ilmiy, nazariy va amaliy tadqiqotlari» mavzusidagi ilmiy loyihasi doirasida bajarilgan (2022-2025-yy.)

Tadqiqotning maqsadi iqtidorning shaxs muloqot uslubiga ta'sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

iqtidorlilar muloqotining ijobiy va salbiy xususiyatlari, muloqotida to'siqlarni keltirib chiqaruvchi omillar tufayli tengdoshlari bilan ishonchli aloqa o'rnatilmasliklari, ulardagi o'ta sezgirlik, intellektual salohiyati haqida ma'lumotlar to'plashda so'rovnomadan foydalanish samarali ekanligini dalillash;

iqtidorli o'quvchilarda kommunikativ uslub shakllanishi va namoyon bo'lishida o'zaro munosabatlar va shaxsiy rivojlanishiga to'siq bo'ladigan salbiy muloqot shakl va vositalarini empirik o'rganib, ularning iqtidori va kommunikativ qobiliyatlari takomillashishiga aks ta'sirini dalillash;

iqtidorli o'quvchilar muloqotida kommunikativ impulsivlikning shakllanishiga tafakkur sifatlaridan tafakkurning egiluvchanligi, emotsionaligi, nutq xususiyatlarini takomillashtirishga qaratilgan modelni qo'llash samaradorligini dalillash;

iqtidorlilar kommunikativ uslubiga oid shakllangan salbiy muloqot ko'nikmalarini susaytirish va ijobiyalarini takomillashtirishda ijtimoiy-psixologik trening dasturini qo'llash samarali ekanligini asoslash.

Tadqiqotning obyekti iqtidorning shaxs muloqot uslubiga ta'sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tanlangan, olib borilgan tadqiqotlarga Surxondaryo viloyati Termiz shahridagi 1-son IMI o'quvchilaridan 115 nafar, Namangan viloyati Yangi Namangan tumanidagi 8-sonli ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabidan 100 nafar, Toshkent viloyati Bekobod tumanidagi 1-sonli ingliz tiliga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabidan 110 nafar respondentlar jalb etildi. Respondentlarning umumiy soni 325 nafarni tashkil etdi.

Tadqiqotning predmetini iqtidorning shaxs muloqot uslubiga ta'sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida suhbat, kuzatish, shuningdek, G.Ayzenk testi asosida ishlab chiqilgan «Qobiliyatni aniqlash testi» (R.Toshimov modifikatsiyasi), N.Buzinning «Qisqa tanlov testi» (X.Sharafutdinova modifikatsiyasi), V.Sinyavskiy, B.A.Fedorishinlarning «Shaxsning kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlarini aniqlash» testi, V.A.Losenkovning «Kommunikativ impulsivlik potentsialining diagnostikasi», metodikalari hamda «Iqtidorlilarning muloqot uslubini aniqlash ijtimoiy-psixologik so'rovnoma (IPS)» (X.Sharafutdinova, Z.Abdullayeva) hamda Mann-Uitni U mezon, Kruskal-Uollis H mezon, Wilcoxon W mezon, K.Pirsonning r-korrelyatsiya koeffitsienti orqali foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

iqtidorlilar muloqotining noyoblighi va afzalliklari hamda muloqotida jiddiy to'siqlarni keltirib chiqaruvchi «yopiqlik», «tortinchoqlik», «tan olmaslik», «mensimaslik», «dominantlikka intilish», «egotsentrizm» tengdoshlari bilan ishonchli aloqa o'rnatilmaslik, o'z fikrida qat'iy turib olish kabi xususiyatlari ularning hissiy jihatdan o'ta sezgirligi, intellektual va ijodiy salohiyati darajasining yuqoriligi bilan bog'liqligi «Iqtidorlilarning muloqot uslubi»ni aniqlash ijtimoiy-psixologik so'rovnoma bilan olingan ma'lumotlar bilan asoslangan;

iqtidorlilarning kommunikativ uslubiga xos «ustunlikka intilish», «yopiqlik», «mensimaslik», «individualizm», «egotsentrizm», «muvaffaqiyatsizlikni qabul qila olmaslik»ning iqtidori va kommunikativ qobiliyatlari takomillashishiga aks ta'siri ularning maxsus qobiliyatlari darajasini aniqlash hamda iqtidorlilar shaxsiga xos kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlarini empirik o'rganish natijalari asosida dalillangan;

iqtidorlilarning muloqotida kommunikativ impulsivlikni bartaraf etish uchun kognitiv: «tafakkurning egiluvchanligi», tafakkurning emotsionalligi», «nutq va tildan foydalanish», xulq-atvorni tashkillashtirish, kommunikativ rivojlanishini nazorat qilish orqali shaxs rivojlanishini baholash asosida zaif jihatlarni takomillashtirishda «Zamonaviy iqtidorli shaxsni kommunikativ rivojlantirish modeli»ni qo'llash samaradorligi dalillangan;

iqtidorlilarda «kommunikativ impulsivlik», «ekstroversiya-introversiya», «dominant-tobe», «mobil-regid» xususiyatlarini aniqlashda kommunikativ impulsivlik potentsialining diagnostikasi natijalaridagi salbiy jihatlarni bartaraf etishda «Iqtidorlilarning kommunikativ qobiliyati komponentlarini rivojlantirish» ijtimoiy-psixologik trening dasturini qo'llash samarali ekanligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

iqtidor muammosini tadqiq etish asosida zamonaviy iqtidorli o'quvchilar muloqoti va shaxsining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlashga oid metodikalar tizimi, tadqiqot metodikalarining shkalalari bo'yicha miqdor va sifat tahlili amalga oshirilgan;

o'quvchilar ma'naviy, ijtimoiy-psixologik, va intellektual rivojlanishiga iqtidorining ta'siri, muloqot uslubi va iqtidor rivojlanishining psixologik imkoniyatlarini takomillashtirish tamoyiliga muvofiq maxsus model ishlab chiqilgan.

maxsus psixologik trening asosida o'quvchilar iqtidorini ro'yobga chiqarishga mo'ljallangan mashqlardan foydalanib, tafakkurning va muloqot uslubi, hamda ma'naviy xulq-atvorini yuksaltirish, mensimaslik, individualizm, egoizmning oldini olishda optimal rivojlantiruvchi usullar qo'llash samaradorligi asoslantirilgan.

psixologik so'rovnoma asosida iqtidorli o'quvchilarning muloqoti va munosabat uslubi hamda individualligiga xos bo'lgan egoizm, tortinchoqlik xususiyatlari baholab, modelga muvofiq tashkil etilgan psixokorreksion mashg'ulotlar vositasida iqtidorli o'quvchilar muloqotining muhim sifatleri takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qoyilganligi, tanlangan metodikalarning validligi, to'planning representativligi, natijalarning ishonchliligi, qo'llanilgan psixodagnostik metodikalarning psixometrik talablarga javob berishi, olingan emperik natijalarni qayta ishlashda matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanilganligi (korrelyatsion tahlil) va miqdoriy ko'rsatkichlarni psixologik talqin etishda ishonchlilik hamda muqarrarlikning statistik mezonlariga tayanilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati psixologiya fanida iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularning intellektual imkoniyatlarini oshirish, shaxsiy xususiyatlarini yuksaltirishga ta'sir etish omillarini psixologik tashxis qilish va psixokorreksiya amalga oshirishga qo'yilgan talblarning takomillashtirilganligi hamda tadqiq etilgan muammoga oid ilmiy tushunchalar yuzasidan ilmiy dunyoqarashni kengaytirishi, mazkur tadqiqot ishi vazifalarini amalga oshirishda tadqiq etilayotgan, iqtidorning muloqot uslubi shakllanishiga ta'siri keng yoritilganligi, iqtidorni yuksaltirish yo'llarini tadqiq etishga doir ilmiy xulosalardan ijtimoiy psixologiyaga asoslangan tadqiqotlarda foydalanish samarali ekanligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyatini empirik ma'lumotlardan iqtidorni yuksaltirish bilan shug'ullanadigan amaliyotchi psixologlar faoliyati samaradorligini oshirishda foydalanish mumkinligi, muloqot uslubi va iqtidor rivojlanishining psixologik imkoniyatlarini takomillashtirish to'g'risidagi muayyan kontseptual nazariyaning shakllanishiga xizmat qilishi, amalga oshirilgan ilmiy tahlillardan iqtidorlilarning muloqoti uslubi hamda individualligiga xos bo'lgan egoizm, tortinchoqlik xususiyatlari baholashga qaratilgan psixodagnostik va psixokorreksion ishlarni belgilashda, shuningdek, «Ijtimoiy psixologiya», «Psixologik xizmat», «Umumiy psixodagnostika», «Psixokorreksiya» fanlaridan o'quv qo'llanma, darsliklar tayyorlashda manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi: Dissertatsiya ishi yuzasidan olib borilgan ilmiy psixologik ma'lumotlar hamda tadqiqot natijalari asosida:

iqtidor muammosining ilmiy-nazariy tadqiqotlariga tayanib, iqtidorlilarning muloqotiga xos psixologik xususiyatlariga oid tavsifini ishlab chiqishda «Iqtidorlilarning muloqot uslubi»ni aniqlash ijtimoiy-psixologik so'rovnomadan foydalanish samarali ekanligi asoslangan yangilik Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2026-yil 05-fevraldagi №PM-28-sonli buyrug'i bilan «Umumiy psixodagnostika» moduliga kiritilgan (Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2026-yil 05-fevraldagi №PM-28-sonli ma'lumotnomasi). Natijada tinglovchilarning iqtidorlilarning muloqotiga xos psixologik xususiyatlarini aniqlashning psixodagnostik uslublari boyitilgan;

iqtidorli o'quvchilarning kommunikativ stiliga xos ustunlikka intilish, yopiqlik, mensimaslik, individualizm, egosentrizm, muvaffaqiyatsizlikni qabul qila olmaslikning iqtidori va kommunikativ qobiliyatlari takomillashishiga aks ta'siri dalillangan yangilik Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika

universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2026-yil 05-fevraldagi №PM-28-sonli buyrug'i bilan «Shaxslararo munosabatlar psixologiyasi» moduliga kiritilgan (Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2026-yil 05-fevraldagi №PM-28-sonli ma'lumotnomasi). Natijada tinglovchilarning iqtidorlilar kommunikativ uslubiga xos salbiy xususiyatlarini bartaraf etishga mo'ljallangan;

iqtidorli o'quvchilarda kommunikativ impulsivlikni bartaraf etish uchun «tafakkurning egiluvchanligi», «tafakkurning emotsionalligi», «nutq va tildan foydalanish» xususiyatlarini takomillashtirishda «Zamonaviy iqtidorli shaxsni kommunikativ rivojlantirish modeli»ni (1-rasm.) qo'llash samaradorligi dalillangan yangilik Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2026-yil 05-fevraldagi №PM-28-sonli buyrug'i bilan «Ijtimoiy-psixologik trening» moduliga kiritilgan (Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2026-yil 05-fevraldagi №PM-28-sonli ma'lumotnomasi). Natijada iqtidorli shaxslarda shaxslararo munosabatni shakllantirish mexanizmlari rivojlantirilgan;

iqtidorli o'quvchilar kommunikativ stilining ekstroversiya-introversiya, dominant-tobe, mobil-regidlikka oid salbiy xususiyatlarini bartaraf etishda «Iqtidorli o'quvchilarning kommunikativ qobiliyati komponentlarini rivojlantirish» ijtimoiy-psixologik trening dasturini qo'llash samarali ekanligi asoslangan yangilik Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2026-yil 05-fevraldagi №PM-28-sonli buyrug'i bilan «Konsultativ psixologiya va psixokorreksiya» moduliga kiritilgan (Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2026-yil 05-fevraldagi №PM-28-sonli ma'lumotnomasi). Natijada markaz laboratoriyalarining ilmiy-metodik ta'minotini yanada boyishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferentsiyalarida muhokama etilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 12 ta ilmiy ish, 3 tasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini nashr etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, jumladan, 1 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi ilovalarsiz 154 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi, zarurati, maqsadi, vazifalari, obekti va predmeti O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi, nazariy va

amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi bilan bog‘liq ma’lumotlar ilmiy jihatdan asoslangan.

Dissertatsiyaning «**Shaxs iqtidori muammosini o‘rganishning ilmiy-nazariy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida iqtidor muammosining ilmiy-nazariy asoslari yoritilgan. Shuningdek, ushbu bobda Markaziy Osiyo mutafakkirlarining iqtidorli va iste’dodli kishilarning shaxsiy fazilatlarining jamiyat moddiy va ma’naviy yuksalishidagi ahamiyati hamda iqtidorining namoyon bo‘lishi va rivojlanishiga ta’sir etuvchi oila, ota-ona, tarbiya, o‘qituvchi, iqtidorli bolalarning shaxsiy-psixologik xususiyatlarining o‘ziga xos ta’siri mavjudligi haqidagi qarashlari yoritilgan. Ayni paytda xorijlik, hamdo‘stlik mamlakatlari olimlari hamda o‘zbekistonlik psixologlarning iqtidorli bolalarning o‘z manfaatlarini haddan tashqari o‘ziga qabul qilishlari, o‘z maqsadlariga erishishda qat’iyatliliklari natijada umidsizlikka tushish hamda qiziqarli ishdan butunlay voz kechishga olib kelishi mumkinligi haqidagi qarashlari keltirilgan. Iqtidorning ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga ulardagi yuqori kognitiv qiziqish, ijodiy fikrlash, perfektsionizm va o‘zini namoyon qilish qobiliyati kiradi. Iqtidorlilar ko‘pincha tabiatan yolg‘izlikka moyil bo‘ladi, yetakchilik fazilatlarini bilan ajralib turadi, ammo oddiy muammolar va ta’lim dasturlarini qabul qilmasliklari tufayli ijtimoiy moslashishda qiyinchiliklarga duch keladilar.

Tadqiqot davomida iqtidorning serqirra va noyob jihatlari shuningdek uning yuksalishi uchun avvalo uni erta aniqlash, to‘g‘ri yo‘naltirish, ijtimoiy yordamni tashkil etish bilan bog‘liq nazariy manbalardan olingan ma’lumotlar tahlili va amaliy tadqiqot natijalari asosida iqtidor tushunchasiga «Iqtidor deb, insonning bir yoki bir nechta faoliyatda boshqalarga nisbatan yuqori, u yoki bu qobiliyatning yuqori darajada rivojlanishi, g‘ayrioddiy, favqulodda kutilmagan natijalarga erishish qobiliyati, boshqalar uchun yaxshilik qilish, go‘zallik va baxt yaratish hamda jamiyatga xizmat qilish qobiliyatini belgilaydigan tizimli, inson hayoti davomida rivojlanadigan psixologik xususiyati ekanligi ilmiy asoslablanib mualliflik ta’rifi berilgan.

Tadqiqotning «**Shaxs iqtidori va muloqot uslubini amaliy o‘rganish**» deb nomlangan ikkinchi bobida iqtidorlilarning kommunikativ qobiliyati va iqtidori yo‘nalishlarini aniqlash maqsadida qo‘llanilgan metodikalar tavsifi va psixodiagnostik ishlar tahlili, shaxs iqtidori yo‘nalishlarini o‘rganishning metodik asoslarini izohlashda qo‘llanilgan metodikalar, ularning mazmuni, metodologiyasi hamda qo‘llanilish tartibi haqidagi ma’lumotlarni yoritishga bag‘ishlanadi.

Dastlab «Iqtidorlilarning muloqot uslubi»ni aniqlash (IPS) so‘rovnomaning jinslar bo‘yicha kommunikativ uslublarning qiyosiy tahlillar amalga oshirilgan (1-jadval).

Psixologiyada kommunikativ uslubning bir nechta asosiy tasniflarini ajratiladi, ularning har biri kommunikatsiyani ijtimoiy munosabatlarning turli prizmalari orqali ko‘rib chiqilgan va bir qancha tiplarga ajratilgan.

«Iqtidorlilarning muloqot uslubi» ni aniqlash (IPS) so‘rovnomaning jinslar bo‘yicha kommunikativ uslublarning qiyosiy tahlili yuzasida dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, «demokratik» ($t=-2,26$; $p<0,05$), «alturistik» ($t=-3,66$;

p<0,001), «pragmatik» (t=-2,84;p<0,01), «bilvosita» (t=-2,10;p<0,05) «aralash» (t=-2,18;p<0,05) «passiv» (t=2,00;p<0,05) «agressiv» (t=-2,23;p<0,05) «ekstrovert» t=-2,43;p<0,005) «introvert» (t=2,23;p<0,05) «dominant» (t=-2,25;p<0,05) «mobil» (t=-3,94;p<0,001) «regid» (t=-2,97;p<0,05) kabi kommunikativ uslublar bo'yicha sezilarli farqlar aniqlandi.

1-jadval

«Iqtidorlilarning muloqot uslubi»ni aniqlash (IPS) so'rovnomaning jinslar bo'yicha kommunikativ uslublarning qiyosiy tahlili (N=325)

Kommunikativ uslub nomlari	Jinslar		t- qiymat	p-ishonch darajasi
	Qiz bolalar N ₁ =125 (M ± SD)	O‘g‘il bolalar N ₂ =200 (M ± SD)		
O‘zaro munosabatlar xususiyati bo'yicha				
Avtoritar	27,4 ± 44,6	19,6 ± 39,7	1,60	p>0,05
Demokratik	46,8 ± 49,9	36,3 ± 46,2	-2,26	p < 0,05
Liberal	25,8 ± 43,8	22,1 ± 41,5	0,76	p>0,05
Negativ yo'nalish bo'yicha:				
Manipulyatsion	38,1 ± 48,6	27,9 ± 44,9	1,90	p>0,05
Altruistik	16,3 ± 36,9	33,5 ± 47,2	-3,66	p < 0,001
Pragmatik	55,6 ± 49,7	39,6 ± 48,9	-2,84	p < 0,01
Ochiqlik darajasi bo'yicha:				
Bevosita (to‘g‘ridan to‘g‘ri)	47,8 ± 50,0	39,6 ± 48,9	1,45	p>0,05
Bilvosita	32,5 ± 46,8	38,5 ± 47,7	-2,10	p < 0,05
Rasmiylik bo'yicha:				
Rasmiy-ishbilarmonlik	17,6 ± 38,1	13,8 ± 34,5	0,91	p>0,05
Norasmiy	46,9 ± 49,9	38,6 ± 48,7	1,47	p>0,05
Aralash	47,6 ± 49,9	35,5 ± 47,8	-2,18	p < 0,05
O'zini tutish uslubi bo'yicha:				
Passiv	27,8 ± 44,8	18,1 ± 38,5	2,00	p < 0,05
Agressiv	33,6 ± 47,2	40,4 ± 49,1	-2,23	p < 0,05
Assertiv	48,6 ± 50,0	41,5 ± 49,3	1,25	p>0,05
Passiv-agressiv	37,4 ± 48,4	37,0 ± 48,3	0,07	p>0,05
Muloqotga kirishuvchanligiga ko‘ra:				
Ekstrovert	18,3 ± 38,7	24,9 ± 43,2	-2,43	p < 0,05
Introvert	38,2 ± 48,6	31,5 ± 46,5	2,23	p<0,05
Ambivert	43,5 ± 49,6	43,6 ± 49,6	0,02	p>0,06
Muloqotda ustunligiga ko‘ra:				
Dominant	16,2 ± 36,8	21,7 ± 41,2	-2,25	p < 0,05
Tobe	54,9 ± 49,8	54,8 ± 49,8	0,02	p>0,05
Muloqotga kirishishning yengilligi bo‘yicha:				
Mobil	26,5 ± 44,1	31,3 ± 46,1	-3,94	p < 0,05
Regid	23,7 ± 42,5	28,5 ± 45,1	-2,97	p < 0,05

So'rovnomaning «avtoritar» (t=1,60;p>0,06), «liberal» (t=0,76;p>0,06) «manipulyatsion» (t=1,90;p>0,06) «to'g'ridan-to'g'ri» (t=1,45;p>0,06) «rasmiy-ishbilarmonlik» (t=0,91;p>0,06) «norasmiy» (t=1,47;p>0,06) «assertiv» (t=1,25;p>0,06) «passiv-agressiv» (t=0,07; p>0,06), «ambivert» (t=0,02;p>0,06) ,

«regid» ($t=0,02; p>0,06$) kabi kommunikativ uslublarga ko'ra har ikkala guruhning ko'rsatkichlari bir-biriga yaqin natijalar sababli statistik jihatdan bu farq ishonchli emasligi kuzatildi (1-jadval).

Tadqiqotda qo'llanilgan «Shaxsning kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlarini aniqlash» testidan olingan natijalar tashkilotchilik qobiliyati shkalasida hududlar kesimida taqqoslanganda Surxondaryo viloyati ($N=115$), Toshkent viloyati ($N=110$), Namangan viloyatidan ($N=100$), tanlab olingan respondentlarda tashkilotchilik qobiliyatida sezilarli darajada farq mavjudligi aniqlandi. Toshkent viloyatidan ishtirok etgan sinalluvchilarning iqtidori boshqa hududlarga nisbatan yuqori darajadali bilan farqlandi. Bu hududda asosan zamonaviy texnologiyalar, jadallashish jaroyoni bo'lganligi hamda respublikada rivojlangan shaharlardan biri hisoblanganligi sababli bu yerdagi iqtidorlilarning iqtidori to'g'ri yo'naltirilganligi tufayli ularda tashkilotchilik qobiliyatlari boshqa viloyatdagi iqtidorlilaridan sezilarli darajada yuqoriligi bilan izohlandi. Surxondaryo va Namangan viloyatlarida ham bu xususiyat sezilarli darajada mavjud, lekin Toshkent viloyati hududidan tanlab olingan iqtidorlilarning aksariyatida bu xususiyat yuqoriligi bilan dalillandi ($H=10,747; p<,005$). (2-jadval)

2-jadval

«Shaxsning kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlarini aniqlash» testining hududlar bo'yicha Kruskal Uollis mezoni asosidagi statistik tafovut. ($N=325$)

Ko'rsatgich	O'rtacha rang			H	Ishonch darajasi
	Surxondaryo viloyati ($N=115$)	Toshkent viloyati ($N=110$)	Namangan viloyati ($N=100$)		
Tashkilotchilik qobiliyati	168,05	179,31	138,69	10,747	,005**
Kommunikativ qobiliyati	194,82	165,89	123,24	31,729	,000***

«Kommunikativ qobiliyat» shkalasi bo'yicha hududlar kesimida taqqoslanganda, mazkur ko'rsatkich bo'yicha Surxondaryolik respondentlarda boshqa hududga nisbatan sezilarli darajada yuqori natija qayd etildi.

Aynan iqtidorlilarda kommunikativ qobiliyat ustunligi ko'pchilik tadqiqot ishlarda ham e'tirof etiladi. Toshkent hamda Namangan viloyatli respondentlarida ham kommunikativ qobiliyat yetarli darajada, biroq Surxondaryolik respondentlarda sezilarli darajada yuqoriligi dalillandi ($H=31,729; p<,000$).

«Qisqa tanlov testi» natijalari Kruskal Uollis mezoni asosida hududlar kesimida taqqoslanganda, «Umumlashtirish va tahlil qilish» shkalasiga ko'ra, Surxondaryo ($N=115$), Toshkent ($N=110$), Namangan viloyati ($N=100$), respondentlarning ko'rsatkichlariga ko'ra Surxondaryoliklarda sezilarli darajada yuqoriligi aniqlandi. Umumlashtirish va tahlil qilish voqea hodisalarning umumiy belgilarini birlashtirish va ularni qismlarga ajratib, tahlil qilish ixtisoslashgan maktab o'quvchilarida boshqa hududlarga nisbatan yuqoriligi bilan farqlandi.

«Qisqa tanlov testi» testi hududlar bo'yicha Kruskal Uollis mezoni asosidagi statistik tafovut. (N=325)

Ko'rsatgich	O'rtacha ranglar			H	Ishonch darajasi
	Surxondaryo viloyati (N=115)	Toshkent viloyati (N=110)	Namangan viloyati (N=100)		
Umumlashtirish va tahlil qilish	213,17	122,83	149,50	55,276	,000***
Tafakkur egiluvchanligi	183,61	138,10	166,68	13,633	,001**
Tafakkur kochuvchanligi	207,98	125,15	152,91	25,872	,002**
Tafakkur emotsional jihatlari	172,15	200,25	115,11	47,892	,000***
Idrok tezligi va aniqligi	208,43	107,55	171,76	66,924	,000***
Nutq va tildan foydalanish	202,78	101,61	184,78	73,256	,000***
Tasavvur obrazi	184,23	115,20	190,26	49,331	,000***

Shu hududdagi iqriddorli o'quvchilarni intellektual jihatdan tahlil qilish sezilarli daraja yuqoriligi dalillandi. Namangan va Toshkent hududlarida ham umumlashtirish va tahlil qilish shkalasi sezilarli darajada ustunlik mavjud ammo, Surxondaryoliklarga nisbatan pastroq ekanligi bilan izohlandi ($H=55,276; p<000$). Xuddi shunday «Tafakkurning egiluvchanligi» shkalasi hududlar kesimida tafovutlar o'rganilganda, Surxondaryoliklarda sezilarli darajada yuqoriligi bilan izohlandi. Tafakkurning egiluvchanligi ma'lum bir jamiyatda qabul qilingan an'analarni to'g'ri deb hisoblash, zamonaviy taraqqiyot uchun javob bera oladigan va tafakkur qila oladigan hamda o'z faoliyati tahlil qila oish qobiliyati tushuniladi. Surxondaryo hududidagi iqtidorlilarda tafakkur qilish va tahlilni shakllantirish yuqoriligi aniqlandi. Namangan hududida Toshkent hududiga nisbatan yuqoriligi aniqlandi. Bu hududda ham tafakkurning egiluvchanligi sezilarli darajada ustunligi aniqlandi ($H=13,633; p<001$). Xuddi shunga o'xshash hududiy tafovutlar metodikaning boshqa shkalalarida ham kuzatildi. Bu esa iqtidorning yuzaga chiqishi, rivojlanishida bo'lgani kabi hududiy xususiyatlar ham differentsial tafovutlanishi bilan xarakterlanishini ko'rsatmoqda (3-jadval).

«Qobiliyatni aniqlash testi» metodikasining natijalari Kruskal Uollis mezoni asosida hududlar kesimida taqqoslandi. Surxondaryo viloyati ($N=115$), Toshkent viloyati ($N=110$), Namangan viloyati ($N=100$), A-lingvinistik qobiliyat shkalasiga ko'ra, tanlab olingan hududlarda farqlar mavjud, lekin tafovut sezilarli darajada emasligi bilan izohlandi ($H=4,021; p>134$). Metodikaning bu shkalasiga ko'ra Toshkent viloyatidan tanlab olingan respondentlarda, Namangan va Surxondaryo viloyati respondentlariga nisbatan biroz yuqori daraja kuzatildi.

Lingvistik qobiliyatga ega kishilarda o'qishga, she'riyatga, bahs-munozaralarga, hazil-xajv va hikoyalarga qiziqish kuchli bo'ladi. Bu hududda o'quvchilarda ham xuddi shunday xususiyatlar ustunligi kuzatildi. Surxondaryo

viloyatidagi respondentlarda ham ustunlik sezilarli darajada chunki bu hududda etnografik xususiyatdan ham qiziqchililar ayniqsa shoirlar juda ko'p yetishib chiqqanligi, avlodlarning meroslari saqlanganligi bu qobiliyat o'quvchilarda ham sezilarli darajada mavjudligi aniqlandi ($H=4,021$; $p>,134$).

4-jadval

«Qobiliyatni aniqlash testi» ning hududlar bo'yicha Kruskal Uollis mezonini asosidagi statistik tafovut. (N=325)

Ko'rsatgich	O'rtacha ranglar			W	Ishonch darajasi
	Surxondaryo viloyati (N=115)	Toshkent viloyati (N=110)	Namangan viloyati (N=100)		
A – lingvistik qobiliyat	167,77	171,31	148,38	4,021	,134
V- matematik qobiliyat	218,54	97,49	171,19	98,951	,000***
S- ko'rish qobiliyati	164,33	185,48	138,30	14,581	,001**
D-kinetik qobiliyati	177,68	154,85	155,09	4,478	,107
Ye- tabiatsevarlik qobiliyati	154,64	160,22	173,42	2,458	,293
F- musiqiy qobiliyati	162,80	181,50	141,95	9,828	,007**
G-kommunikativ qobiliyati	152,06	183,45	151,52	8,669	,013**
H-fikrlash qobiliyati	177,38	144,82	166,46	7,066	,029**

Matematik qobiliyat shkalasi hududlar kesimida taqqoslandi. Surxondaryo viloyati (N=115), Toshkent viloyati (N=110), Namangan viloyati (N=100), bu qobiliyat Surxondaryo viloyatidan ikkita hududga nisbatan sezilarli darajada yuqoriligi aniqlandi. Aynan shu hududdan tanlab olingan respondentlarda aniq fanlarga iqtidorililigi bilan farqlandi. Bu qobiliyati ustun bo'lgan o'quvchilarada abstrakt belgilar, formulalar, raqamlar bilan ishlashni yoqtirishadi. Zamonaviy sharoitlar ustun bo'lmagan hududlarda aniq hisob kitoblarga tayanish ustun bo'ladi. Aynan Surxondaryo iqlim va joylashuvi jihatdan janub hisoblanadi va yuqoridagi ikkita hududga nisbatan rivojlanish sekinligi ham bunga sabab bo'lishi mumkin deb hisoblaymiz. Shu bilan birgalikda Namangan hamda Toshkent viloyatlarida ham bu qobiliyatga ega bo'lgan o'quvchilar mavjud, lekin Surxondaryo hududida sezilarli darajadali izohlandi. Asosan bu hududda yuqori bo'lishi sabab, bunday shaxslar nafaqat misol, masala yechishda, balki hayotdagi muammolarni muhokama qilishda ustunligi aniqlangan. Bu hududdan tanlab olingan respondentlar aynan shunday xususiyatlarga ega bo'lganligi natijalarida izohlangan ($H=98,951$; $p<,000$).

Kommunikativ qobiliyati shkalasi hududlar kesimida solishtirilganda, Toshkentlik respondentlarda sezilarli darajada yuqorligi bilan kuzatildi. Bu qobiliyat sohiblari hamdard, hamkor, hushmuomala bo'lishni, birgalikda turli loyihalar yaratishni xush ko'rishadi. Shu sababli Toshkent hududidagi respondentlarda bu qobiliyat yetakchiligi aniqlandi. Buning sababi, aynan Toshkent poytaxt hisoblanadi madaniyat o'chog'i qolaversa muomila madaniyat yetakchi o'rinlarni egallaydi. Tanlab olingan o'quvchilarda yangi loyihalar yaratish, yaratuvchanlik hamda kreativlik bu qobiliyat ustunligi aniqlandi. Bu

hududda hamdard bo'lish ham yetakchi hisoblanadi. Surxondaryo va Namangan hududlarda o'quvchilarida bir xil natijalar qayd etildi. Buning sababi, bu ikkala hududning xalqi cho'rtkesar va dangaligi tufayli bu qobiliyat Toshkent viloyatiga nisbatan biroz pastroqligi aniqlandi ($H=8,669$; $p<013$).

«Fikrlash qobiliyati» hududlar kesimida Surxondaryo viloyati ($N=115$), Toshkent viloyati ($N=110$), Namangan viloyati ($N=100$), tanlab olingan respondentlarda Surxondaryo hududida sezilarli darajada yuqoriligi aniqlandi. Bu qobiliyat egalari doim fikrini bir joyga yig'ib to'play oladi, yaxshi va chuqur fikrlaydi, hayol surib yurishni yaxshi ko'rishadi. Surxondaryo viloyatidagi o'quvchilarda diqqatni bir joyga to'plash yuqoriligi bu hududdan ko'ngil ochar maydonlar kamligi asosan maktab oila do'stlar hamkorligi ustunligi ham o'quvchilarda buni ustunligini izohlaydi. Zamonaviy sharoit boshqa ikki hududga nisbatan yuqori bo'lmaganligi aniq narsalarga tayanish ustun bo'lishini isbotlaydi. Fikrlar ham shu tufayli chuqur bo'lishi va fikrlash qobiliyati ustunligi bilan dalillandi ($H=7,066$; $p<029$).

5-jadval

«Qisqa tanlov testi» jinslar bo'yicha Mann-Uitni mezonida statistik tafovutlari.
($N=325$)

Ko'rsatkich	Jins	N	O'rtacha rang	U	Ishonch darajasi
Umumlashtirish va tahlil qilish	Qizlar	125	168,80	-,882	,378
	O'g'il bolalar	200	159,38		
Tafakkurning egiluvchanligi	Qizlar	125	155,01	-1,222	,222
	O'g'il bolalar	200	168,00		
Tafakkurning ko'chuvchanligi	Qizlar	125	161,17	-,279	,780
	O'g'il bolalar	200	164,14		
Tafakkurning emotsional jihatlari	Qizlar	125	136,13	-4,082	,000***
	O'g'il bolalar	200	179,80		
Idrokning tezligi va aniqligi	Qizlar	125	186,43	-2,309	,038*
	O'g'il bolalar	200	168,36		
Nutq va tildan foydalanish	Qizlar	125	190,57	-2,434	,042*
	O'g'il bolalar	200	168,90		
Tasavvur obrazi	Qizlar	125	194,88	-2,304	,046*
	O'g'il bolalar	200	161,83		

Amalga oshirilgan aksariyat tadqiqot natijalari normal taqsimlanish qonuniga to'g'ri kelmaganligi sababli statistik tahlilda Mann-Uitni mezonidan foydalanildi. «Qisqa tanlov testi» asosida iqtidorli o'quvchilarning aqliy qobiliyati xususiyatlari omillar bo'yicha tahlil qilindi. Umumlashtirish va tahlil qilish shkalasida tanlab olingan respondentlar o'rtasida jins bo'yicha farqlar aniqlandi. Tadqiqot natijalari bo'yicha qizlar ($N=125$), o'g'il bolalarga ($N=200$), nisbatan umumlashtirish va tahlil qilishda biroz farq mavjud, lekin sezilarli darajada emas ($U=-,882$; $p>,378$). Mazkur qiymatga ko'ra, jins solishtirilganda qizlar va o'g'il bolalarda tafakkurning umumiyashtirish va tahlil qilish xususiyatlari deyarli bir xil natijalarni tadqiqotda qayd etildi. Har ikkala jinsdagi respondentlarning ham umumlashtirish va tahlil qilish xususiyatlari ong bilan bog'liq bo'lgan aql, idrok qila olish xususiyatlari bir xil darajada ekanligi izohlandi.

6-jadval

«Shaxsning kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlarini aniqlash» testining jinslar bo'yicha Mann-Uitni mezonida statistik tafovutlari. (N=325)

Ko'rsatkich	Jins	N	O'rtacha rang	U	Ishonch darajasi
Tashkilotchilik qobiliyati	Qizlar	125	175,02	-1,947	,049*
	O'g'il bolalar	200	155,49		
Kommunikativ qobiliyat	Qizlar	125	173,06	-2,539	,020**
	O'g'il bolalar	200	156,71		

Ushbu mezonga ko'ra jins jihatidan qizlar (N=125), o'g'il bolalarga (N=200) nisbatan tashkilotchilik qobiliyatlari yuqori ekanligini aniqlandi. (U=-1,947; p<0,49). Demak aynan shu yoshdagi qizlar ushbu o'g'il bolalarga nisbatan tashkilotchilik qobiliyatlari, jamoaviy ishlarda faolligi, balki o'qishdagi har qanday ko'rik tanlov yoki ma'naviy, madaniy faoliyatda ham ustunligini tashkilotchilik qobiliyatida ham yuqori ekanligi bilan izohlanadi. O'g'il bola jinsiga mansub shaxslar odatda shaxs xususiyatlari bo'yicha qizlarga nisbatan tortinchoqlik yoki o'zini namoyon qilishda biroz qiyinchiliklar paydo bo'lishi mumkinligini ham taqdiqot natijalarida ko'rish mumkin. Ushbu qiymatdagi ishonchlik darajasiga ko'ra qizlar o'g'il bolalarga nisbatan tashkilotchilik qobiliyatlari sezilarli darajada farqi yuqoriroq tashkilotchilik qobiliyatlariga ega ekanligi aniqlandi

Shuningdek kommunikativ qobiliyat ko'rsatkichdagi natijalar, jins asosida quyidagilarni ifodalaydi: qizlar (N=125), o'g'il bolalarga (N=200) nisbatan kommunikativ qobiliyat ham sezilarli darajada farqning mavjudligi aniqlandi (U=-2,539; p<,020). Ushbu qiymatdagi ishonch darajasiga ko'ra qizlar o'g'il bolalarga nisbatan aloqa o'rnatishda kirishimli bo'lishi, muloqot o'rnatish olishi yoki boshqalarni yaxshi idrok etishi, kommunikativ jarayonda faqat muloqot qilishi emas balki, o'zaro birgalikda hatti-harakatlar amalga oshirishda almashish jarayonlari ham jins bo'yicha qizlarda ustunligi mavjudligini aniqlash mumkin. O'g'il bolalarda ham qizlarga nisbatan kommunikativ qobiliyat rivojlangan, aloqa o'rnatish qobiliyati ham mavjud, lekin jins bo'yicha qizlarda ustunligi bilan farqlanadi.

7-jadval

«Shaxsning kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlarini aniqlash»testi bilan «Qisqa tanlov testi» o'rtasidagi bog'liqlik ko'rsatkichlari (N=325)

	Umumlashtirish va tahlil qilish	Tafakkur egiluvchanligi	Tafakkur kochuvchanlik	Tafakkur emotsional	Idrok tezligi va aniqiligi	Nutq va tildan foydalanish	Tasavvur obraz
Tashkilotchilik qobiliyati	192**	-,021	,004	443**	-,034	-,039	,404**
Kommunikativ qobiliyat	,108	,044	474**	,057	-,005	-,502**	-,056

Amalga oshirilgan tadqiqotlardan kelib chiqib «Shaxsning kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlarini aniqlash» testi va «Qisqa tanlov testi» shkalalari


o'rtasidagi bog'liqlik K.Pirson r-mezonidan foydalanib o'rganildi va bir qator natijalar qo'lga kiritildi. Jumladan, «Shaxsning kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlarini aniqlash» testining «kommunikativ qobiliyatlilik» shkalasi va «Qisqa tanlov testi» metodikasining «tafakkur ko'chuvchanligi» shkalalari o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjudligi aniqlandi ($r_s=,474$; $p<0,01$). Tafakkurning ko'chuvchanligi ortaganda iqtidorlilarda kommunikativ qobiliyati ortishi kuzatildi.(7-jadval) Ushbu holatni iqtidorlilar tafakkurining fikr yuritilayotgan ob'yektga tezkor ko'chira olishi, turli sohalarda yengil fikr yurita olish qobiliyatiga ega bo'lishi bilan izohlanadi. Bu tafakkurning fleksabilligi (mustaqilik) bilan bog'liq bo'lgan xususiyat hisoblanadi. Tafakkurni tez ko'chira olgan iqtidorlilar har tomonlama kommunikatsiya qila olish xususiyatiga ega bo'ladilar va bunday shaxslar har xil sohalarda fikr yurata olganligi uchun ham ularda kommunikatsiya qobiliyati yuqori darajada bo'lishi dalillangan. Aloqa o'rnatish bevosita tafakkur bilan bog'liqligi amalga oshirilgan tadqiqotlarda izohlangan.

Amalga oshirilgan tadqiqotlardan kelib chiqib iqtidorlilarda shaxsning kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlarini aniqlash bo'yicha savolnoma V.N.Buzin «Qisqa tanlov testi» tomonidan ishlab chiqilgan va psixologiya fanlar doktori X.G.Sharafutdinova tomonidan moslashtirilgan shkalalari bilan bog'liqligini K.Pirson r-mezonidan foydalanib o'rganildi.

